Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 227-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

HUDUDLARNI BAHOLAŞ UÇUN YAGONA AXBOROT BANKINI ŞAKLLANTIRIŞGA DOIR YANGIÇA YONDAŞUVLAR

MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD), mustaqil tadqiqotçi
E-mail: omamadaliev1714@yahoo.com
ORCID: 0009-0004-9829-9027

Annotatsiya. Maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişini baholaş uçun tuman (şahar) darajasidagi yagona axborot bankini şakllantiriş uslubiyoti bayon etiladi. Axborot banki rasmiy statistika (SIAT), mahalliy byudjetlar ijrosi va PQ-4702 reytingining ma'muriy ma'lumotlarini 206 tuman, 14 hudud va respublika böyiça 2016–2025 yillar uçun uzun formatdagi yagona jadvalda birlaştiradi. Yagona identifikatsiya (SOATO, körsatkiç kodi, yil), körsatkiçlar pasporti, har bir qiymat uçun O/P/E/A/B sifat belgilari, tarkibiy uzilişlar protokoli (B-1…B-9), böşliqlar va maqsadlar reyestrlari bankning majburiy tarkibiy qismlari sifatida asoslanadi. Iyerarxik yiğma va mustaqil manbalar taqqoslovi yadro qatorlarining muvofiqligini tasdiqladi. Axborot banki "bitta baza – köp indeks" tamoyili asosida qurilgan.
Kalit so'zlar: hududiy statistika, tuman darajasi, axborot banki, sifat belgilari, tarkibiy uzilişlar, böşliqlar reyestri, maqsadlar reyestri, modulli baholaş tizimi.

Аннотация. В статье изложена методика формирования единого информационного банка районного (городского) уровня для оценки социально-экономического развития регионов. Информационный банк объединяет официальную статистику (SIAT), данные об исполнении местных бюджетов и административные данные рейтинга ПҚ-4702 по 206 районам, 14 регионам и республике за 2016–2025 годы в единой таблице длинного формата. Обоснованы единая идентификация (COATO, код показателя, год), паспорта показателей, признаки качества O/P/E/A/B для каждого значения, протокол структурных разрывов (B-1…B-9), реестры пробелов и целей как обязательные компоненты банка. Иерархическая сверка и сопоставление независимых источников подтвердили согласованность базовых рядов. Информационный банк построен как материальная основа концепции «одна база — много индексов».
Ключевые слова: региональная статистика, районный уровень, информационный банк, признаки качества, структурные разрывы, реестр пробелов, реестр целей, модульная система оценки.

Abstract. The article sets out a methodology for building a unified district (city) level information bank for assessing regional socio-economic development. The information bank merges official statistics (SIAT), local budget execution data and administrative data of the PQ-4702 rating for 206 districts, 14 regions and the country over 2016–2025 in a single long-format table. Unique identification (SOATO, indicator code, year), indicator passports, O/P/E/A/B quality flags on every value, a structural break protocol (B-1…B-9), and gap and target registers are substantiated as mandatory components of the bank. Hierarchical aggregation checks and cross-source comparison confirmed the consistency of the core series. The information bank is built as the material basis of the "one database — many indices" concept.
Keywords: regional statistics, district level, information bank, quality flags, structural breaks, gap register, target register, modular assessment system.

KIRIŞ

Hududlarni baholaş böyiça har qanday kompozit indeks uning asosida yotgan ma'lumotlar töplamining funksiyasidir. Şu bois baholaş uslubiyotining imkoniyatlari avvalo axborot ta'minoti bilan çeklanadi, çunki ma'lumoti yöq

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

körsatkiç eng mukammal uslubiyotni ham işlamaydigan qilib qöyadi. Özbekistonda 2020 yildan boşlab hududiy siyosatning asosiy birligi tuman (şahar) darajasiga köçdi. PQ-4702-son qaror bilan tuman va şaharlarning reyting baholaş tizimi joriy etildi, "Özbekiston – 2030" strategiyasi va milliy dasturlar hududiy maqsadlarni belgiladi. Biroq tuman darajasidagi axborot ta'minoti hanuz tarqoq holda qolmoqda.

Amaldagi holatni quyidagiça tavsiflaş mumkin. Milliy statistika qömitasining SIAT tizimi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining byudjet ijrosi jadvallari va PQ-4702 reytingi uçun vazirliklar tomonidan yiğilgan ma'muriy ma'lumotlar har biri öz identifikatsiya tizimi, öz körsatkiç ta'riflari va öz formatiga ega. Ularning heç birida dastlabki va yakuniy qiymatlar farqlanmaydi, dinamika qatorlaridagi uzilişlar va böşliqlar qayd etilmaydi. Natijada har bir reyting öz bazasini yuritadi, ma'lumotlar takror yiğiladi, bir tuman turli reytinglarda ziddiyatli örinlarni egallaydi va bu örinlarni özaro muvofiqlaştirib bölmaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi aynan tuman (şahar) darajasidagi yagona axborot bankini şakllantiriş uslubiyotini asoslaş va uning amaldagi ma'lumot bazalaridan farqini körsatişdan iborat. Bank muayyan bir reyting uçun emas, modulli baholaş tizimining ("bitta baza – köp indeks") tamoyili asosida loyihalangan, aniqroği istalgan baholaş profili bir xil bazadan va bir xil işlov beriş qoidalari bilan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Rasmiy statistika sifati xalqaro standartlarda köp ölçamli tuşunça sifatida belgilanadi. XVFning ma'lumotlar sifatini baholaş tizimi (DQAF) [1] sifat kafolatlari, uslubiy asoslanganlik, aniqlik va işonçlilik, xizmat körsatiş hamda mavjudlik ölçamlarini ajratadi. Yevropa statistikasi amaliyot kodeksi [2] izçillik va taqqoslanuvçanlik tamoyillariga alohida urğu beradi, BMTning rasmiy statistika asosiy tamoyillari [3] esa foydalanuvçiga ma'lumotning manbasi va uslubini oşkor qilişni talab qiladi. Kompozit indikatorlar metodologiyasi böyiça IHTT qöllanmasida [4] indeksni qurişdan oldin ma'lumotlarning mavjudligi, sifati va yetişmayotgan qiymatlarga işlov beriş alohida bosqiç sifatida körsatilgan. S.Greko va boşqalar [5] hamda M. Saysana va hammualliflar [6] metodologik tanlovlarning natijaga ta'sirini oşkor körsatişni talab qiladi.

Hududiy va ayniqsa kiçik hududlar statistikasi uçun qöşimça masalalar mavjud. IHTTning hududiy farovonlikni ölçaş böyiça işlari [7] va YeI hududiy raqobatbardoşlik indeksi [8] barça hududiy birliklar uçun bir xil manbadan va bir xil ta'rifda ma'lumot bölişini asosiy talab deb belgilaydi. Kiçik sonlar tebranişi va tanlama kuzatuvlarning tuman kesimida yöqligi kiçik hudud baholaş usullari [9, 10] bilan hal qilinadi. Ma'muriy ma'lumotlarni statistikaga integratsiyalaş masalasi "Statistikani rivojlantiriş – 2030" milliy strategiyasida [11] ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Milliy adabiyotda hududlarni baholaş körsatkiçlarini tanlaş va reyting tizimlari masalalari [12, 13, 14] örganilgan, statistika tizimini isloh qiliş natijalari tahlil qilingan[15]. Biroq tuman darajasida turli manbalardan olingan

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ma'lumotlarni yagona identifikatsiya tizimida, sifat belgilari va uzilişlar protokoli bilan birlaştiruvçi axborot banki uslubiyoti işlab çiqilmagan. Uşbu böşliq maqolaning predmetini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tuman darajasidagi axborot manbalarini tizimli inventarizatsiya qilişdan boşlandi. SIAT ning 85 ta ma'lumotlar qatori körib çiqildi (ulardan 29 tasi tuman, 63 tasi viloyat, 2 tasi respublika kesimiga ega). Iqtisodiyot va moliya vazirligining byudjet ijrosi ma'lumotlari 2017–2024 yillar ijrosi va 2025 yil parametrlarini tuman kesimida (xarajatlar, daromad kontingenti, öz daromadlari, transfertlar) qamrab oladi. PQ-4702 bazasi 2020–2023 yillar uçun 38 körsatkiç, ikkita sörovnoma va reyting natijalarini 624 ta xlsx faylda saqlaydi. Yordamçi manbalar sifatida Markaziy bank kurslari, hududiy iste'mol narxlari va fizik hajm indekslari hamda geoBoundaries ma'muriy çegaralari olindi.

Inventarizatsiya asosida bankning olti tamoyili belgilandi:

- mavjudlik (faqat rasmiy statistika va identifikatsiyalangan ma'muriy manbalarda haqiqatan mavjud ma'lumotlar;
- viloyat qiymatini tumanlarga "çöziş" yöli bilan olingan şartli qiymatlar rad etiladi);
- yagona identifikatsiya (ob'yekt – SOATO kodi, körsatkiç – "blok.tartib" kodi, qiymat – kod, SOATO va yil uçligi; nomlar faqat taqdimot uçun);
- boşlanğiç va hosila qatorlarning ajratilişi;
- oşkora sifat (har bir qiymat sifat belgili, har bir uziliş va böşliq protokol yozuvli);
- iyerarxik muvofiqlik (hudud qiymati – rasmiy hudud qatori, tumanlar yiğindisi – tekşiruv vositasi);
- maşinada öqiluvçanlik va takrorlanuvçanlik (uzun format, SDMX mantiği, barça işlov dastur kodi bilan).

Şartli qiymatlarni rad etiş empirik saboq natijasidir: axborot bankining birinçi versiyasida 28 tuman körsatkiçidan 15 tasida barça qiymatlar şartli edi. Bunday qiymat tumanlar orasida farq bermaydi va indeksga axborot emas, şovqin qöşadi. Şu tamoyil axborot bankini "ideal" emas, "haqiqiy" qiladi (amalda qöllanadigan tizim har yili yangilanişi lozim).

Hosila qatorlar oşkor formula böyiça hisoblanadi. Qiymat körsatkiçlari real ifodaga keltiriladi: işlab çiqariş hajmlari uçun viloyat yaşirin deflyatori, daromad va iste'mol körsatkiçlari uçun viloyat iste'mol narxlari indeksi darajasi (2021 = 100) qöllaniladi:

$$x_real = x_nom / D_t,\quad D_t = D_\{t-1\} \cdot (N_t / N_\{t-1\}) / (I_t / 100),\quad D_2021 = 100 \qquad (1)$$

bunda x_nom – nominal hajm, N_t – nominal hajm, I_t – fizik hajm indeksi, D_t – yaşirin deflyator darajasi.

Eksport Markaziy bankning yillik örtaça kursi böyiça AQŞ dollarida ifodalanadi, bu 2017 yilgi kurs liberalizatsiyasi ta'sirini bartaraf etadi. Jon boşiga körsatkiçlar örtaça yillik doimiy aholiga ((N_t + N_{t+1})/2) bölinadi. Kiçik sonli

hodisalar (gödaklar va 5 yoşgaça bolalar ölimi) uçun uç yillik yiğma koeffitsiyent qöllaniladi:

$$r_t = \Sigma_\{\tau=t-2\}^\{t\} ölim_\tau \,/\, \Sigma_\{\tau=t-2\}^\{t\} tuğilgan_\tau \times 1000 \qquad (2)$$

Bu usul kiçik tumanlarda yillik koeffitsiyentning 0 dan 80 gaça tebranişini bartaraf etadi. Rasmiy hudud qatori bölmaganda (PQ-4702 körsatkiçlari) hudud qiymati tumanlarning aholi vaznli örtaçasi sifatida hisoblanib, A belgisi bilan belgilanadi.

Axborot bankining işonçliligi ikki usulda tekşirildi: iyerarxik yiğma tekşiruvi (tumanlar yiğindisining viloyat rasmiy qiymatiga nisbati) va bir körsatkiçning ikki mustaqil manbadagi (SIAT va PQ-4702) qiymatlarini 206 tuman böyiça Spirmen korrelyatsiyasi va mediana nisbat orqali taqqoslaş. Bankni quriş jarayoni töliq dasturiy vositalar (Python: pandas, numpy, scipy) asosida avtomatlaştirilgan va 10 soniyadan kam vaqtda qayta işga tuşiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mavjudlik matritsasi (körsatkiç × yil, tumanlar qamrovi foizda) yadro körsatkiçlarini uç guruhga ajratdi. SIAT va byudjet manbalaridan olingan 20 ta uzun qatorli körsatkiç 2016 (ayrimlari 2017) yildan 2025 yilgaça 193–206 tuman böyiça mavjud va daraja, tendensiya, maqsadga yaqinlaşiş hamda prognoz hisoblariga xizmat qiladi. PQ-4702 dan olingan 24 ta ma'muriy körsatkiç barça 206 tuman böyiça, lekin faqat 2020–2023 yillar uçun mavjud va kengaytirilgan profillarda qöllaniladi. Faqat viloyat kesimida mavjud 11 körsatkiç alohida "hudud moduli" sifatida saqlanadi (ular normallaştirilmaydi va indeksga agregatlanmaydi, taşqi validlik va hudud darajasidagi kengaytirilgan tahlil uçun qöllaniladi). Jami 44 yadro körsatkiçi böyiça tuman yaçeykalarining 65 foizi töldirilgan. 2016–2019 yillardagi "töliq emaslik" böşliq emas, bular 2017–2023 yillarda taşkil etilgan 13 ta yangi tuman va şaharning oldingi yillari "qöllanilmaydi" maqomiga egaligini anglatadi.

Axborot bankining asosiy jadvali beş ustunli uzun formatda tuzilgan: körsatkiç kodi, SOATO, yil, qiymat, sifat belgisi. 2.3-versiyada u 66 430 yozuvni öz içiga oladi (62 mingdan ortiq tuman, 4 mingga yaqin hudud va 143 respublika yozuvi). Uzun format körsatkiçlar va yillar sonining özgarişiga befarq (yangi körsatkiç yangi ustun emas, yangi qatorlar), SDMX standartiga mos va har bir qiymat yonida sifat belgisini saqlaşga yöl qöyadi. Bank yana 15 ta tarkibiy qism (varaq) bilan töldirilgan: yöriqnoma, 55 körsatkiç pasporti, 13 profil parametrlari, ob'yektlar reyestri (15 hudud va 206 tuman, nomlar tört tilda), 94 manbali manbalar reyestri, boşlanğiç qatorlar, deflyatorlar, agregatlaş tekşiruvi (1 008 tekşiruv), töliqlik matritsasi, 2025 yil baholari, uzilişlar protokoli, böşliqlar reyestri, PQ-4702 bilan taqqoslaş va maqsadlar reyestri.

Har bir körsatkiç pasport bilan tavsiflanadi: kod, blok (10 blok "Özbekiston – 2030" yönalişlariga mos), ta'rif, birlik, qutblilik, daraja, manba (SIAT raqami yoki ma'muriy manba), formula, tekislaş va logarifmlaş belgilari, maqsadlar reyestri va uzilişlarga havolalar. Pasport körsatkiçning manbadan indeksgaça bölgan butun

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

“hayot yöli”ni hujjatlaştiradi. Körsatkiçlar şuningdek “boşqariluvçi / tarkibiy” va “natija / şart-şaroit” belgilari böyiça tasniflanadi.

Uç manbaning identifikatsiya tizimlarini birlaştiriş bank qurilişining eng mehnattalab qismi böldi. SIAT qatorlarida SOATO kodi bevosita beriladi, lekin körsatkiç nomlari yillar va tillar böyiça farqlanadi, şuning uçun SIAT raqami asosiy identifikator qilib olindi. Byudjet jadvallarida tumanlar faqat nom bilan berilgan: 206 birlik uçun nomlar luğati tuzildi. Jami 624 fayldan katalog tuzilib, 43 qator yagona kodga keltirildi.

Sifat belgilari tizimi beş belgidan iborat: O – rasmiy yakuniy; P – rasmiy dastlabki yoki reja parametri; E – muallif bahosi (usuli hujjatlaştirilgan); A – ma’muriy manba, statistik standart böyiça tasdiqlanmagan; B – uziliş, zanjir boğlaş qöllanilgan (O/P/E/A ga qöşimça). Tuman darajasidagi 62 299 qiymatning 58,6 foizi O, 38,3 foizi A, 1,7 foizi P va 1,3 foizi E belgisiga ega. E va P belgilari faqat 2025 yilga tegişli. Şu yil uçun tuman qiymatlarining 45 foizi baho yoki parametr, şuning uçun 2025 yil bahosi “tezkor” maqomga ega bölib, rasmiy qatorlar e’lon qilingaç qayta hisoblanadi. Yetişmayotgan 2025 yil qiymatlari nisbat usuli (tuman 2024 × viloyat 2025 / viloyat 2024) bilan, viloyat darajasida ham ma’lumot yöq bölganda esa retrospektiv tekşiruv orqali tanlangan söndirilgan ösiş usuli bilan (RMSE 2,5 % – “oxirgi qiymat” 3,5 % va “uç yillik örtaça ösiş” 3,3 % ga qarşi) töldirildi.

1-jadval

Axborot bankida aniqlangan tarkibiy uzilişlar va boğlaş qoidalari

Kod	Körsatkiç	Uziliş sababi	Yil	Boğlaş qoidasi
B-1	Barça jon boşiga	2026 yil aholi röyxati	2026 (kutilmoqda)	Aholi qatori yangilanadi, jon boşiga qayta hisoblanadi
B-2	6.3	Uy-joy fondini qayta röyxatga oliş	2020–2021	Zanjir boğlaş: tendensiyada 2020→2021 çiqariladi
B-3a	8.4, 9.1–9.3	Byudjetlararo munosabatlar özgarişi	2018, 2019, 2022	3 yillik tekislaş; 5–95 persentil çeklaş
B-3	8.4, 9.1–9.4	Byudjet islohoti, 2025 parametr	2025	P qiymat — tezkor baho; ijro e’lon qilingaç almaştiriladi
B-4	8.1, 8.5	Tadbirkorlik reyestri tozalanişi	2024–2025	Tendensiyada ösiş tekislanadi
B-5	Barça	Yangi tumanlar taşkil etilişi (SOATO)	2017–2021	Oldingi yillar “qöllanilmaydi”; ajraliş yili çiqariladi
B-6	3.1 (hudud moduli)	Kambağallik ta’rifi özgarişi	2021	Zanjir boğlaş, 2021 dan yangi ta’rif
B-7	5.2	Kiçik tumanlarda tasodifiy tebraniş	doimiy	3 yillik yiğma koeffitsiyent
B-8	1.2	Sanoat hisobotining tuman/şahar orasida köçişi	turli yillar	3 barobarlik özgariş belgilanadi; tekislaş va çeklaş
B-9	1.5, 8.2, 5.6	Tabiatan keskin tebranuvçi körsatkiçlar	doimiy	Doimiy 3 yillik tekislaş

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Tarkibiy uzilişlar protokoli har bir uziliş uçun olti maydonni belgilaydi: identifikator, körsatkiç, sabab, yil, körinişi (miqdoriy mezon) va boğlaş qoidasi

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

(1-jadval). Uziliş ikki yöl bilan aniqlanadi: hujjatli (uslubiyot yoki ma'muriy-hududiy özgariş haqidagi rasmiy axborot) va statistik (yillik özgariş panel taqsimotining 99-persentilidan oşsa yoki mediana özgariş 3 barobardan ortiq bölsa, qator «şubhali» deb belgilanadi). Eng keng tarqalgan uziliş (B-3) byudjetlararo munosabatlarning özgarişi bölib, 129–179 tumanda öz daromadlari va transfertlar qatorida uç barobardan ortiq sakraş bergan; sanoat hisobotining köçişi (B-8) 18 tumanda qayd etilgan; eksport, investitsiyalar va migratsiyaning yillik mediana özgarişi 30–54 foizni taşkil etadi (B-9). Protokolning mohiyati şundaki, uziliş «tuzatilmaydi» va ma'lumotdan çiqarib taşlanmaydi: boşlanğiç qiymat öz holiça qoladi, faqat uning baholaşga ta'siri oşkor e'lon qilingan qoida bilan çeklanadi. Boğlaş qoidalari uç turga bölinadi: zanjir boğlaş (B-2, B-5, B-6), tekislaş va çeklaş (B-3, B-4, B-8, B-9), yiğma koeffitsiyent (B-7) va kutilayotgan röyxat uçun qayta hisoblaş (B-1).

Mavjudlik tamoyili bankning konseptual töliqligini çeklaydi, şu bois u böşliqlar reyestri bilan töldiriladi. Reyestrda olti yozuv bor: 2025 yil uçun sanoat, çakana savdo, işlovçilar va şifokorlar qatorlari; byudjet ijrosi 2025; ta'lim bloki 2016–2019 va 2024–2025 yillar uçun; ekologiya bloki (faqat suv tejovçi texnologiyalar 2020–2023); tuman darajasidagi kambağallik (faqat kiçik hudud bahosi orqali); yöllar ziçligi va internet. Har bir böşliq uçun ma'lumot egasi va harakat belgilangan; reyestr "Statistikani rivojlantiriş – 2030" strategiyasi doirasida ma'muriy ma'lumotlar egalariga rasmiy sörovlar röyxati sifatida xizmat qiladi. Yangi körsatkiç bankka tört şart bilan kiritiladi: pasport mezonlaridan ötişi, kamida 4 yillik tuman qatori, mustaqil manba bilan validatsiya va profilga parametr jadvali orqali qöşilişi; yadro qoidalari bunda özgarmaydi.

Maqsadga yaqinlaşiş ölçovi uçun bank strategik maqsadlar reyestrini öz içiga oladi. Reyestr "Özbekiston – 2030" strategiyasi (PF-21-son Farmon ilovasi) va milliy dasturlar asosida tuzilgan bölib, 41 maqsadni qamrab oladi: 21 tasi rasmiy hujjatlardan, 20 tasi rasmiy maqsad yöq körsatkiçlar uçun şartli ravişda (yiliga 2–4 % ösiş) belgilangan. Reyestrning markaziy tuşunçasi zarur sur'at g* dir:

$$g^* = (x^* / x_0)^{1/(T - t_0)} - 1; \quad \Delta^* = (0 - x_0) / (T - t_0) \text{(nol maqsad uçun)} \qquad (3)$$

bunda x_0 – tayanç yil (2025) qiymati, x^* – maqsadli qiymat, T – maqsad yili (2030).

Masalan, jon boşiga sanoat mahsulotini 36,5 dan 60,0 ming dollargaça oşiriş uçun g* yiliga 10,45 %, içimlik suvi bilan qamrovni 82,8 dan 90 foizga yetkaziş uçun 1,68 %, gödaklar ölimini 8,6 dan 6,5 promillegaça kamaytiriş uçun −5,45 %ga özgarişi kerak. Tuman darajasida zarur sur'at milliy sur'atga teng olinadi, ya'ni tuman maqsadi "milliy maqsad sur'atida ösiş"dan iborat. Maqsad qayta körib çiqilganda faqat reyestrdagi yozuv özgartiriladi, indeks esa avtomatik qayta hisoblanadi.

Axborot bankining işonçliligi ikkita tekşiruv bilan tasdiqlandi. Iyerarxik yiğma tekşiruvi demografik körsatkiçlar, mehnat daftarçali işlovçilar va sanoat mahsuloti böyiça tumanlar yiğindisining viloyat rasmiy qiymatiga nisbati 1,00 (sanoatda örtaça 0,99) ekanini körsatdi. Bozor xizmatlari böyiça nisbat 0,51–0,88, byudjet

körsatkiçlari böyiça 0,15–0,85, şu örinda viloyat hajmining bir qismi tumanlarga taqsimlanmaydi. Şu asosda hudud qiymati tumanlar yiğindisi emas, rasmiy hudud qatori degan qoida örnatildi. Mustaqil manbalar taqqoslovi (2-jadval) 11 körsatkiçdan sakkiztasi böyiça SIAT va PQ-4702 orasida yuqori muvofiqlikni (ρ = 0,83–0,96, mediana nisbat 0,94–1,10) körsatdi. Kanalizatsiya böyiça manbalar turli tuşunçani ölçaydi (xonadonlar uluşi va markazlaşgan tizimga ulanganlik, mediana nisbat 42 barobar), şuning uçun ikkala körsatkiç alohida kiritildi. SIAT ma'lumotlaridan qurilgan tadbirkorlik yaşovçanligi proksisi bevosita ölçangan körsatkiç bilan manfiy boğlangan çiqdi (ρ = −0,49) va rad etildi; şundan söng har bir proksi mustaqil validatsiyasiz yadroga kiritilmaydi degan qoida örnatildi.

2-jadval

Axborot banki va PQ-4702 bazasi körsatkiçlarining muvofiqligi, 206 tuman, 2020–2023 yillar örtaçasi

Kod	Körsatkiç	ρ (Spirmen)	Mediana nisbat bank / PQ-4702
1.2	Jon boşiga real sanoat mahsuloti	0,92	0,95
1.5	Jon boşiga eksport	0,83	1,01
3.4	Jon boşiga real çakana savdo	0,94	0,94
5.5	Şifokorlar bilan ta'minlanganlik	0,93	1,17
6.1	Içimlik suvi bilan ta'minlangan xonadonlar	0,62	0,97
6.2	Kanalizatsiya bilan ta'minlangan xonadonlar	0,64	42,44
6.3	Jon boşiga uy-joy maydoni	0,94	1,00
8.1	Kiçik tadbirkorlik sub'yektlari	0,96	0,94
8.2	Jon boşiga real investitsiyalar	0,90	1,10
8.4	Jon boşiga byudjet öz daromadlari	0,78	0,64

Muallif hisob-kitoblari (SIAT, IMV, PQ-4702 ma'lumotlari asosida).

Bankning har bir yangilanişida tört turdagi avtomatik tekşiruv bajariladi: töliqlik (har bir körsatkiç uçun ≥ 95 % tuman), iyerarxik muvofiqlik (nisbat 0,95–1,05), mustaqil manbalar muvofiqligi (ρ ≥ 0,8, mediana nisbat 0,9–1,1) va şubhali özgarişlar (99-persentildan oşgan yozuvlar). Xalqaro valyuta jamharmasi DQAFining beş ölçami böyiça öz-özini baholaş "sifat kafolatlari" va "aniqlik va işonçlilik"ni yuqori, "uslubiy asoslanganlik" va "xizmat körsatiş"ni örta, "mavjudlik"ni örta/past deb baholaydi. Zaif ölçamlar bankning içki sifati emas, manbalarning holati bilan boğliq.

Yagona axborot bankining amaldagi bazalardan farqi quyidagiça. SIAT rasmiy statistikaning asosiy manbasi bölsa-da, tuman kesimida faqat 29 qatorni beradi, ma'lumotlar xom holda saqlanadi, dastlabki va yakuniy qiymatlar farqlanmaydi, uzilişlar va böşliqlar qayd etilmaydi. PQ-4702 bazasi tuman kesimida töliq, lekin tört yil bilan çeklangan, tumanlar nom böyiça identifikatsiya qilinadi, hosila qatorlar x/max ball şaklida, 624 faylda tarqoq. Yagona bank esa tuman, hudud va respublikani 10 yil davomida SOATO + kod + yil + belgi identifikatsiyasi bilan qamrab oladi, 44 yadro va 11 hudud körsatkiçini pasport bilan ta'minlaydi, hosila qatorlarni oşkor formula böyiça hisoblaydi, uzilişlar (9 yozuv), böşliqlar (6 yozuv) va maqsadlar (41) reyestrlarini yuritadi va kod bilan takrorlanadi. Aynan şu

xususiyatlar uni bir reytingga emas, istalgan profilga xizmat qiluvçi modulli resursga aylantiradi: Indeks_profil = Yadro(Bank, Parametrlar_profil).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida Özbekistonda ilk bor tuman (şahar) kesimida rasmiy statistika, byudjet ijrosi va reytingning ma'muriy ma'lumotlari yagona identifikatsiya tizimida, 10 yillik panel şaklida birlaştirildi va har bir qiymat sifat belgisi bilan hujjatlaştirildi. Uslubiyotning yangiligi uç jihatda körinadi: birinçidan, tarqoq manbalar yagona kuzatuv birligi va yagona vaqt öqi atrofida jamlandi; ikkinçidan, uzilişlar protokoli, böşliqlar reyestri va maqsadlar reyestri hududiy statistika amaliyoti uçun yangi majburiy tarkibiy qismlar sifatida belgilandi; uçinçidan, axborot banki "bitta baza – köp indeks" tamoyilini amalga oşiruvçi modulli tizimning asosi sifatida qurildi.

Axborot bankning ayrim çeklovlari ham qayd etiladi. Xususan, tuman darajasida ta'lim, ekologiya va kambağallik yönalişlari qamrab olinmagan, 2025 yil uçun qiymatlarning 45 foizi baho yoki parametr, ma'muriy körsatkiçlar 2020–2023 yillar bilan çeklangan. Bu çeklovlar uslubiyotning kamçiligi emas, axborot ta'minotining haqiqiy holatini aks ettiradi va foydalanuvçiga sifat belgilari orqali oçiq körsatiladi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilar ilgari suriladi: bankni yillik sikl (yanvar–fevral – tezkor baho, mart–iyun – yakuniy baho, iyul – reyestrlarni qayta köriş) va versiyalaş tartibi asosida yuritiş; bank egaligini Milliy statistika qömitasi (rasmiy statistik qism) va Iqtisodiyot va moliya vazirligi (ma'muriy qism) örtasida taqsimlaş; böşliqlar reyestrini "Statistikani rivojlantiriş – 2030" strategiyasi doirasida ma'muriy ma'lumotlarni integratsiyalaş böyiça rasmiy sörovlar röyxati sifatida qöllaş; PQ-4702 va boşqa idoraviy reytinglarni yagona bankning profillariga aylantiriş. Şunday yondaşuv ma'lumotlarning takror yiğilişini bartaraf etadi, turli baholar natijalarining özaro muvofiqligini ta'minlaydi va hududiy baholaş tizimini xalqaro statistik standartlar talablariga yaqinlaştiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. International Monetary Fund. Data Quality Assessment Framework (DQAF). Washington: IMF, 2012.

2. Eurostat. European Statistics Code of Practice. Luxembourg: Publications Office of the EU, 2017.

3. United Nations. Fundamental Principles of Official Statistics. General Assembly Resolution 68/261. New York: UN, 2014.

4. OECD. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide / M. Nardo, M. Saisana, A. Saltelli, S. Tarantola, A. Hoffman, E. Giovannini. Paris: OECD Publishing, 2008. 162 p.

5. Greco S., Ishizaka A., Tasiou M., Torrisi G. On the methodological framework of composite indices: a review of the issues of weighting, aggregation, and robustness // Social Indicators Research. 2019. Vol. 141. P. 61–94.

6. Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Uncertainty and sensitivity analysis techniques as tools for the quality assessment of composite indicators // Journal of the Royal Statistical Society: Series A. 2005. Vol. 168, No. 2. P. 307–323.

7. OECD. How's Life in Your Region? Measuring Regional and Local Well-being for Policy Making. Paris: OECD Publishing, 2014. 174 p.

8. Annoni P., Dijkstra L. EU Regional Competitiveness Index 2019. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. 44 p.

9. Rao J.N.K., Molina I. Small Area Estimation. 2nd ed. Hoboken: Wiley, 2015. 441 p.

10. Pfeffermann D. New important developments in small area estimation // Statistical Science. 2013. Vol. 28, No. 1. P. 40–68.

11. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 10 sentyabrdagi ““Statistikani rivojlantiriş – 2030” milliy strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi PF-190-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/8472659.

12. Mamadaliyev O.T. Methods of selecting indicators for comprehensive assessment the socio-economic development of regions // EPRA International Journal of Economic and Business Review. 2023. Vol. 11, Issue 10. DOI: 10.36713/epra14549.

13. Mamadaliyev O.T. Rating systems for assessment of socio-economic development of regions of the Republic of Uzbekistan // Özbekistonda milliy statistika tizimini takomillaştirişning ustuvor yönalişlari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toşkent, 2021.

14. Sattorov S.A. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişini baholaşning zamonaviy yondaşuvlari // International Finance and Accounting. 2025.

15. Бегалов Б.А., Мамадалиев О.Т. Реформы в сфере статистики, результаты и перспективы развития // Статистика и Экономика. 2021. Т. 18, № 1. С. 4–13. https://doi.org/10.21686/2500-3925-2021-1-4-13.

16. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirişni reyting baholaş tizimini joriy etiş töğrisida”gi PQ-4702-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/4803533.

17. Mamadaliyev O.T. Methods of selecting indicators for compre-hensive assessment the socio-economic deve-lopment of regions // EPRA International Journal of Economic and Business Review-Peer Reviewed Journal Volume - 11, Issue - 10, October 2023 | e-ISSN: 2347 - 9671| p- ISSN: 2349 – 0187 / https://doi.org/10.36713/epra14549.

18. Mamadaliyev O.T. Clustering the regions of uzbekistan by level of development: practice and alternatives // Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti, “Ta’sirçan parlament nazorati: milliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toşkent, “DIMAL” naşriyoti, 2025-yil 26-noyabr.// https://pri.oliymajlis.uz/compilation.html.

19. Mamadaliyev O.T. Priority directions of statistical research of socio-economic development of regions // “Iqtisodiyotni raqamlaştiriş şaroitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining örni” xalqaro ilmiy-amaliy

konferensiya töplami, “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI | maxsus son, 13-14-may | 2026 // https://infocom.uz/magazine/29.

20. Mamadaliyev O.T. Özbekistonda hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirişning öziga xos jihatlari // “Yangi özbekistonda yaşil iqtisodiyotga ötiş şaroitida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniş muammolari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2026-yil 25-sentabr // https://doi.org/10.5281/zenodo.23492973.

21. Milliy statistika qömitasi. Statistik axborotni tarqatiş tizimi (SIAT). URL: https://siat.stat.uz (murojaat sanasi: 17.10.2026).

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy